Самарков

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI
PSIXOLOGIYA VA IJTIMOIY-
SIYOSIY FANLAR FAKULTETI

Ro‘yxatga olindi:
№ 52-60220500
2024 yil “10” 07

“TASDIQLAYMAN”
SamDU rektori:
R.J.Xalmuradov
2024 yil ___

“ONTOLOGIYA VA BILISH NAZARIYASI”

Fanidan

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	200 000 – San’at va gumanitar fanlar
Ta’lim sohasi:	220 000 - Gumanitar fanlar (tillardan tashqari)
Ta’lim yo‘nalishi:	60220500 – Falsafa

Fan/modul kodi	Oquv yili	Semestr	ECTS – Kreditlar
OB1304	2025-2026	3	4
Fan/modul turi	**Ta'lim tili-**		**Haftadagi dars soatlari**
Majburiy	O'zbek		4 soat

1.	Fan nomi	Auditoria mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami:
	ONTOLOGIYA VA BILISH NAZARIYASI	52	68	120

II Fanning maqsadi (FM)	
1	Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda ontoligiyaning dolzarb muammolari: bolriq, mavjudlik, materiya, subsnattsiya, yo'qlik, borliqning atributlari, hamda fanning dolzarb muammolari, kasbiy va pedagogik sohasida innovatsiyalardan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish hamda fan bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iborat. Shuningdek, talabalarda borliq falsafasining muammolari, bolriq, rivojlanish, harakat, borliqning turlari va shakllari, biosfera va noosfera ta'limoti va rivojlanish, o'zaro aloqadorlik qonuniyatlarini, ongning vazifalari hamda xususiyatlarini o'rgatishdan iboratdir

Fan mazmuni	
II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) **II.I Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**	
Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M)	
M1	**1 - bo'lim. Ontologiya** **Falsafiy tafakkur rivojida ontologiya muammosi va mohiyati** Ontologiya tushunchasining tahlili. Borliq kategoriyasi va sof borliq g'oyasi. Borliq va yo'qlik dialektikasi. Falsafa tarixida borliq muammosi. Borliq masalasida Demokrit va Platon yondashuvi. Aristotel borliq haqida.O'rta asrlar G'arb va sharq falsafasida haqiqiy borliq g'oyasi. Tasavvuf ta'limotida borliq muammosi. Yangi davrda borliq muammosi. Noklassik borliq haqidagi ta'limotlar. Borliq va mavjudlik g'oyasi. Borliqning shakllari. Inson borliqning o'ziga xos xususiyatlari. Ma'naviy borliq: individuallashtirilgan va ob'ektivlashtirilgan borliq. Ijtimoiy borliq. Virtual borliq. Olamning paydo bo'lishi va evolyusiyasi. Er tarixi. Insonning paydo bo'lishi va evolyusiyasi. Tirik tabiat yoki hayotning paydo bo'lishi. Hayotning paydo bo'lishi haqidagi falsafiy optimizm. Jonli narsalarning jonsiz narsalarga bog'liqligi. Jonli narsalarning o'ziga xos xususiyatlari.
M2	**Borliqning tuzilishi. Substantsiya muammosi** Borliqning tuzilishi. Substansiya g'oyasi. Substansiya va substrat tushunchasi. Falsafa va fizikada substansiya, substrat va materiyaning o'zaro aloqasi. Falsafa tarixida substansiyaga monistik, dualistik, plyuralistik yondashuvlar. Monizmning shakllari. Substansiyaning nazariy xususiyatlari va amaliy ahamiyati. Sharq falsafsida substansiya g'oyasi. G'arb falsafasida substansiya muammosi. Borliq va yo'qlik dialektikasi. Borliqning tuzilishi. Yo'qlik tushunchasi. Mavjudlik tushunchasi. Noborliq. O'ta borliq. Borliq va mavjudlik g'oyasi. Borliqning shakllari. Noborliqdan borliqqa o'tish. Borliqdan noborliqqa otish. .Borliq va mavjudlik g'oyasi. Mavjudlik g'oyasining falsafiy ahamiyati. Substansiya g'oyasi. Substansiya va substrat tushunchasi. Falsafa tarixida borliq va yo'qlik haqidagi qarashlar.
M3	**Materiyaning tashkil topish darajalari**
	Materiya tushunchasining vujudga kelishi. Materiya haqidagi tasavvurlar shakllanishining asosiy bosqichlari. Materiya oid konsepsiyalar tasnifi. Materiya masalasida dialektik fikrlashning zarurati. Ob'ektning ontologik modeli. Materiya kategoriyasining funksiyalari. Materiyaning umumiylik nuqtai nazariyadan ta'rifi. Materiyaning tashkil topish darajalari. Mikro-makro va megaolamning tavsifi. Mikroolamning xususiy jihatlari. Geotsentrik va nogeotsentrik moddiy tizimlar. Dunyoning birligi va rang barangligi. Dunyo birligining fundamental asoslari. Dunyoning yagonaligi va uning moddiyligi. Dunyoning yaxlitligi va rang-barangligi dialektikasi. Dunyo birligi haqidagi fan dalillari.
M4	**Harakat borliqning yashash sharti** O'zgarishlarning umumiy xususiyati. Harakat va harakatsizlikning o'zaro nisbati. Falsafa tarixida makon va vaqtning o'zaro nisbati haqidagi tasavvurlar. Qadimgi falsafa harakat va sokinlik haqida. Geraklitning abadiy harakat va rivojlanish haqidagi g'oyalari. Platon va Aristotelning harakat mavjudligiga oid qarashlari. N.Kuzanskiy harakatsiz markazning va harakatdagi hodisalarning mavjudligi haqida. So'fizm moddiy ob'ektlar o'zgaruvchanligining sababi haqida. (Ibn Arabiy, G'azzoliy). 19-asrgacha jismlarning mexanik o'rin almashinuvini harakat deb tushunishning sababi. Harakat tiplari. Rivojlanish. Rivojlanishning asosiy va ikkinchi darajali yo'nalishlari. Hozirgi zamon falsafasida harakat tushunchasi. Harakat shakllarining umumiy tavsifi haqidagi qarashlar evolyusiyasi. Harakat shakllarining tasnifi. Harakat shakllarining nisbiy mustaqilligi. Materiya harakatining asosiy, xususiy va kompleks shakllari. Harakatning geologik shakli. Harakatning texnik, kibernetik, informatsion shakllari. Materiya harakat shakllarini tasniflash tamoyillari va ularning o'zaro aloqasi.
M5	**Falsafa tarixida makon va vaqt haqidagi tasavvurlar** Borliqda makon va vaqt muammosi. Fazo va vaqtning sustantsional kontseptsitasi. Nyuton. Fazo va vaqt nisbiyligi kontseptsiyasi. Klassik mexanikada fazo va vaqt tushunchalarining talqini. Galiley - Nyuton fizikasi. Klassik mexanikada nisbiylik tamoyili. A.Eynshteyn. Relyativizim. Yorug'lik tezligi. Maxsus nisbiylik nazariyasi: undagi fazo va vaqt talqini. N.ILobachevskiy. Ya.Boyayl. Minkovskiyning to'rt ulchovli geometriyasi. Koordinata. Umumiy nisbiylik nazariyasini eksperimental tekshiruv. Gravitatsiya nazariyasi haqidagi yangi tasavvurlar va ularning fizikadagi roli. Kuchli gravitatsion maydon. Vaqtning «sekinlanishi». Fazoning «egrilanishi».
M6	**Tabiat borlig'i** Tabiat tushunchasining falsafiy tahlili. Falsafa tarixida tabiatga munosabat. Insoniyat tarixining ilk bosqichida tabiatga munosabat. Antik davrda tabiatga munosabat. O'rta asr va qadimgi davrda tabiatga muammosi. Yangi davrda tabiatga munosabat. O'zbekistonda tabiat va tabiiy sharoit dialektikasi. XX asrda ekologik vaziyat va uni bartaraf etish bo'yicha dunyo amaliyoti. Geografik muhit tushunchasi va geografik muhit parametrlari. Ijtimoiy rivojlanish va geografik muhitning o'zaro ta'siri. Geografik maktablar: tabiiy qonunlar konsepsiyasi, geografik determinizm, ijtimoiy determinizm, geosiyosat. Ekologiyaning kelib chiqishi. Ijtimoiy ekologiya ta'limoti. Ekologik falokatlar tarixi. Ekologik muammoning falsafiy ma'nosi. Koevolyusiya va invayronmentalizm tushunchasi. Jonli va jonsiz tabiat tushunchasi. Jonli tabiatni aniqlashning asosiy mezonlari. Turli falsafiy yo'nalishlarda hayot tushunchasiga munosabat.
M7	**2 - bo'lim. Gnoseologiya** **Gnoseologiyaning predmeti va vazifalari** Gnoseologiyaning mazmun va mohiyati. Gnoseologiyaning asosiy mezonlari: dunyoni bilish, o'zini o'zi bilish, bilmaslikdan bilish sari intilish, egallangan bilimlarning dunyo narsalari bilan mosligi.Bilish falsafasi: yondashuvlar dialogi. Gnoseologik relyativizmning o'ziga xos xususiyatlari. Bilish tabiati va tipologiyasi.Agnostitsizm va gnostitsizm.
M8	**Gnoseologiya va epistemologiya o'zaro aloqasi va farqi** Gnoseologiyaning mazmun va mohiyati. Epistemologiyaning ta'rifi. Gnoseologiyaning asosiy mezonlari: dunyoni bilish, o'zini o'zi bilish, bilmaslikdan bilish sari intilish, egallangan bilimlarning dunyo narsalari bilan mosligi. Bilish falsafasi: yondashuvlar dialogi. Optimizm,

	skeptitsizm, agnostitsizm dunyoni bilishga nisbatan munosabat shakllari. Gnoseologik relyativizmning o'ziga xos xususiyatlari. Bilish tabiati va tipologiyasi. Klassik fundamentalizmda bilish masalasi. Bilimning asosiy turlari. Bilim shakllari. Noilmiy bilim shakllari. Bilishning ichki mantiqi. Hozirgi zamon bilishining xususiyatlari. Bilishga ta'sir qiluvchi ob'ektiv va sub'ektiv omillar. Bilish, tajriba va amaliyot uyg'unligi.
M9	**Qadimgi dunyo va O'rta asrlarda gnoseologiyaning rivojlanish tarixi** Qadimgi dunyo va O'rta asrda gnoseologik qarashlar tasnifi. Eng qadimgi tasavvurlar. Qadimgi dunyo faylasuflari ijodida gnoseologiya muammolari. Antik davrda gnoseologiya. Qadimgi Yunoniston falsafasida bilish muammosi. Suqrot, Aflotun, Arastu ijodida bilish masalalari. Markaziy Osiyo mutafakkirlari ijodida bilish masalalari. Markaziy Osiyo bilish nazariyasining xususiyatlari. Sufizm gnoseologiyasi. Sufizm bilish nazariyasida sub'ekt va ob'ekt masalasi. Sufizmda haqiqatni bilish muammosi. Sufiylar ta'limotida aql va tafakkur rolining cheklanganligi masalasi. Sufiylar ta'limotida hissiy va ratsional bilimlarning mutanosibligi.
M10	**Yangi davrda bilish masalalari. XX asr G'arbiy Evropa falsafasida gnoseologiya** Yangi davrda bilish masalalari. Yangi davrda falsafiy tafakkurning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan ijtimoiy-madaniy omillar. Ma'rifatparvarlar ijodida gnoseologiya masalalari. Nemis klassik falsafasida gnoseologiya masalalari. Nemis klassik gnoseologiyasining ahamiyati. XX asr G'arbiy Evropa falsafasida gnoseologiya. XX asrning gnoseologik muammolari. Pozitivizm soxta bilimni haqiqiy bilimdan farqlash haqida. Empiriokrititsizm pozitivizmning ikkinchi tarixiy shakli. Neopozitivizmda ilmiy bilish metodologiyasi. Postpozivitizm pozivitizmning to'rtinchi shakli. Postpozivitizm tugallangan klassika. Strukturalizm va poststrukturalizm.
M11	**Bilishning turlari va darajalari** Bilimning asosiy turlari. Bilim shakllari. Noilmiy bilim shakllari. Bilishning ichki mantiqi.Kundalik bilish. Ilmiy bilish. Ixtisoslashgan bilish. Hozirgi zamon bilishining xususiyatlari. Bilishga ta'sir qiluvchi ob'ektiv va sub'ektiv omillar. Bilish, tajriba va amaliyot uyg'unligi. Hissiy, emperik, mantiqiy va intiutiv bilish darajalarining o'zaro nisbati. Hissiy bilishning shakllari, nazariy bilish va uning shakllari. Sensualizm va ratsionalizm. Tafakkurni shakllari, qonunlari va ularning mohiyati ,intuisiyaning bilishdagi roli. Hissiy darajadagi bilim va uning shakllari. Empirik bilim va uning shakllari. Nazariy bilim va uning shakllari. Tafakkur va uning mohiyati. Hissiy, empirik va ratsional bilish birligi. Bilishning empirik va nazariy darajalarini farqlash mezonlari. Intuitsiya va ijod. Falsafa tarixida intuitsiyaga munosabat. Intuitsiyaning bilishdagi roli. XX asr boshidagi xar xil maktablarda intuitsiya masalalari.
M12	**Bilish faoliyatida ratsionallik va irratsionallik dinamikasi** Bilimning reallik bilan mutanosibligi. . Ratsionalizm va empirizmda bilishga munosabat. Ratsionallik, uning tiplari, uning ilmiy bilishda irratsionallik bilan mutanosibligi. Ilmiy ratsionallik haqidagi yangi tasavvurlar. Ilmiy bilishda ratsionallik va irratsionallik. Bilish faoliyati strukturasi. Bilish nazariyasi tanqidi. Bilishda sub'ekt va ob'ektning o'zaro aloqasi. Bilish nazariyasining tarixiyligi. Bilishda sub'ekt va ob'ekt o'zaro aloqasi. Sub'ekt bilish faolligi manbai. Ob'ekt bilish faoliyati qaratilgan hodisa. Bilish faoliyat turi sifatida. Bilish nazariyasi va kibernetika. Bilish taraqqiyoti modellarining mantiqiy tahlili. Bilish reallikning in'ikosi sifatida. Bilishdagi qarama-qarshiliklar.
M13	**Haqiqat bilish mezoni** Haqiqat bilish nazariyasining bosh kategoriyasi. Skeptitsizm va dunyoni bilish muammosi. Falsafa tarixida haqiqat muammosi. Haqiqatning falsafiy asoslari. Epistemologiyada haqiqatning asosiy konsepsiyalari. Haqiqatning asosiy shakllari. Haqiqatning korrespondent, kogerent va pragmatik konsepsiyalari. Isbotlash va rad etishning haqiqatni bilishdagi roli. Emotsiyalar, iroda, ishonch, ideallar haqiqatni bilish vositasi. Bilish natijalarini baholashning ahamiyati. Bilishning ma'naviy qadriyatlari. Verifikatsiya tamoyili.

	Yolg'on va yanglishish haqiqatning ziddi.Gumanitar bilishda haqiqat muammosi.
	III. Mashg'ulotlar shakli: seminar mashg'uloti
S1	Falsafiy tafakkur rivojida ontologiya muammosi va mohiyati
S2	Borliqning tuzilishi. Substantsiya muammosi
S3	Materiyaning tashkil topish darajalari
S4	Harakat borliqning yashash sharti
S5	Falsafa tarixida makon va vaqt haqidagi tasavvurlar.
S6	Tabiat borlig'i
S7	Gnoseologiyaning predmeti va vazifalari
S8	Gnoseologiya va epistemologiya o'zaro aloqasi va farqi
S9	Qadimgi dunyo va O'rta asrlarda gnoseologiyaning rivojlanish tarixi.
S10	Yangi davrda bilish masalalari. XX asr G'arbiy Evropa falsafasida gnoseologiya
S11	Bilishning turlari va darajalari
S12	Bilish faoliyatida ratsionallik va irratsionallik dinamikasi
S13	Haqiqat bilish mezoni

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular

"ONTOLOGIYA VA BILISH NAZARIYASI" fani bo'yicha ma'ruza mashg'ulotlari bo'yicha mustaqil ishlarning kalendar tematik rejasi

t/r	Mavzu nomi
1	Falsafa tarixida borliq muammosi
2	Borliqning strukturasi
3	Falsafa tarixida substansiyaga monistik, dualistik, plyuralistik yondashuvlar.
4	Materiya haqidagi tasavvurlar shakllanishining asosiy bosqichlari.
5	Falsafa tarixida makon va vaqt haqidagi tasavvurlar
6	Borliqda makon va vaqt muammosi
7	Harakat borliqning atributi sifatida
8	Borliq va yo'qlik dialektikasi
9	Tabiat borlig'i haqidagi falsafiy qarashlar
10	Substansiyaning nazariy xususiyatlari va amaliy ahamiyati.
11	Ijtimoiy borliq haqidagi falsafiy qarashlar
12	Harakat shakllarining umumiy tavsifi haqidagi qarashlar evolyusiyasi.
13	Harakatning texnik, kibernetik, informatsion shakllari
14	Falsafa tarixida tabiatga munosabat.
15	Bilish faoliyatida ratsionallik va irratsionallik dinamikasi
16	Gnoseologiyaning rivojlanish tarixi: Qadimgi dunyo va O'rta asrlar.
17	Bilish metodologiyasi: asosiy tushunchalar.
18	Bilish darajalarining amal qilishida nazariya va amaliyot birligi.
19	Gnoseologiyaning mazmun va mohiyati
20	Bilishning darajalari

Ontologiya va bilish nazariyasi fanini o'rganish natijasida talabalar falsafa tarixida borliq, materiya, substantsiya, jon, harakat, makon va vaqtga turli munosabatlar tasnifi, substansional va relyasion yondashuvlar, dinamik va statik konsepsiyalar, makonning uch o'lchovligi va ko'p o'lchovligi, makon va vaqtning metrik va topologik xossalari, vaqt tartibi va yo'nalishi, davrning ruhi va ijtimoiy vaqt uyg'unligi, ijtimoiy makon va uning o'zgaruvchan xarakteri, ijtimoiy makonda shaxsning roli, hozirgi zamon madaiyatida vaqt va abadiylik muammosi, mehnat vaqti va dam olish vaqti mutanosibligini *bilishi va ulardan . keng foydalana olish* ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

	V. . Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar) **Fanni o'zlashtirish natijasida talabalar:** Falsafiy tafakkur rivojida ontologiya dialektika va gnoseologiyaning muammosi va mohiyati, inson borlig'i, ma'naviy borliq, tabiat borlig'i, virtual borliq, qonun va kategoriyalarni, munosabatdosh kategoriyalarning tasnifi, bilish darajalari va turlari, haqiqatning kogerent pragmatik va korrespondent konsepsiyalarini, ilmiy inqiloblarning asosiy davrlarini, dunyoning ilmiy manzarasini hususida ***tasavvurga ega bo'ladilar***;. .Borliqning shakllari, inson borliqning o'ziga xos xususiyatlari, ma'naviy borliq: individuallashtirilgan va ob'ektivlashtirilgan borliq, ijtimoiy borliq, virtual borliq, olamning paydo bo'lishi va evolyusiyasi, er tarixi, insonning paydo bo'lishi va evolyusiyasi, tirik tabiat yoki hayotning paydo bo'lishi, hayotning paydo bo'lishi haqidagi falsafiy optimizm, jonli narsalarning o'ziga xos xususiyatlari muammolar bo'yicha bilimlar, yechimlar qabul qilish ***malakasiga ega bo'ladilar***.
4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • *munozara,* • *o'z-o'zini nazorat.* • "Aqliy hujum", • "Muammo"; • Krossvord • Annogrammalar Ko'chma dars mashg'ulotlari
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish
6.	**ASOSIY ADABIYOTLAR:** Shermuxamedova N.A. Borliq va rivojlanish falsafasi.-Toshkent, Noshir, 2013. -720 b. Shermuxamedova N.A. Gnoselogiya – bilish nazariyasi. –Toshkent, Noshir, 2011. –B. 460. To'raev B.O. Ontologiya, gnoseologiya, logika va fan falsafasi muammolari. Tanlangan asarlar. I jild. – T.:O'zMK nashriyoti, 2015. –B. 376. Falsafa asoslari. Nazarov Q tahriri ostida. –T.: Sharq, 2018. –B. 376. Yaxshilikov J.Ya., Muhammadiyev N.E. Falsafa: Darslik.-Samarqand. 2021. Sultanova G.S. Rivojlanishh falsafasi. O'quv qo'llanma. Samarqand.: SamDU. 2024. 240 b.. **QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR:** McCray A. An Upper Level Ontology for the Biomedical Domain.Comparative and Functional Genomics, 4, (2003). – P. 80-84. Turaev B.O. Borliq: mohiyati, shakllari, xususiyatlari. – T.: Tafakkur. 2011. –B. 211. Shermuxamedova N.A. Gnoseologiya. –T.O'FMJ. 2007. -460 s. Shermuxamedova N.A. Falsafa. -Toshkent, Noshir.2012. –B. 1207. Shermuhamedova N.A. Falsafaga kirish -T.: -Noshir, 2013. 460 b. S.Guttenplan. J.Hornsby. C.Janavay. Reading philosophy. Blackwell Publishers Ltd. UK. 2003 – P. 341. To'raev B.O. Ontologiya va gnoseologiya muammolari. Toshkent, A Navoiy nomidagi kutubxona nashriyoti. 2015. 450 b. Kerry E. Howell. The philosophy of methodology. India 2013. Sultanova G.S. Bilish falsafasi. O'quv-uslubiy qo'llanma. Samarqand.: SamDU. 2020. 160 b.. **AXBOROT MANBALARI (SAYTLAR):** www.lex.uz, www.ziyonet.uz, www.gov.uz, www.usaid.gov, www.faylasuf.uz, http//www.intencia.ru, http://www.anthropology.ru, http://www.filosofia.ru, http://www.falsafa.dc.uz, ttp://www.phenomen.ru, http://www.lib.ru/FILOSOF
7.	Fan dasturi Samarqand davlat universiteti O'quv uslubiy Kengashining 2024_____ yil "___" _____dagi 1-son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	**Fan/modul uchun mas'ul:** G.S.Sultanova – Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Psixologiya va ijtimoiy siyosiy fanlar fakulteti, "Falsafa va milliy g'oya" kafedrasi professori
9.	**Taqrizchilar:** Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, , Psixologiya va ijtimoiy siyosiy fanlar fakulteti, "Falsafa va milliy g'oya" kafedrasi prof. (ichki) A.Samadov R.Komilov – Samarqand Davlat chet tillar instituti, F.F.d, prof.v.b.

Universitetning 2024-yil 16- avgustdagi 301-ij buyrug'i asosida Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma'sul ishchi guruhi:

Rais – M.Normamatova

Falsafa va milliy g'oya kafedra mudiri **prof. A.Samadov**

Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti dekani **prof. A.Q. Aymatov**

SamDU o'quv ishlari bo'yicha prorektor **prof. A.Soleev**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Psixologiya va ijtimoiy siyosiy fanlar fakulteti, “Falsafa va milliy g’oya” kafedrasida tuzilgan “Ontologiya va bilish nazariyasi” fanidan dasturga

TAQRIZ

Fan dasturida fani yo'nalishi xusu«iyatlarini hisobga olgan hołda ma'ruza va seminar mashg'ulotlari uchun mavzular va ularni bayon ctish uchun zarur ko'rsa(ma va tavsiyalar kcltirilgan. Shuningdck mustaqil ish shakllari va mavzulari, ranni o'qitish natijalari, ta'lim texnologiyalari va metodlari harnda asosiy qo'shimchalar batafsil bayon ctilgan. Dastur fanning mazmuni, talabalar bilimi, ko'nikma va malakalari qo'yilgan talabalar, bo'lajak pedagoglarni o ˢ z ichiga olgan.

Fan dasturi oliy ta'lim tizimda bakalavir bosqichi talabalari uchun o'tiladigan "Ontologiya va bilish nazariyasi” fanining mazmuni va o'tilishi tartibini, talabalar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim hamda ko'nikmalar hajmini belgilab beradigan rasmiy pedagogik hujat hisoblanadi.

Dasturda "Ontologiya va bilish nazariyasi” fani yo'nalishi xususiyatlarini hisobga olgan hołda ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlari uchun mavzular va ulami bayon etish uchun zarur ko'rsatma va tavsiyalar keltirilgan. Shuningdek mustaqil ta'lim shakllari va mavzulari, fanni o'qitish natljalari, ta'lim texnologiyalari va metodlari hamda asosiy qo'shimcha adabiyotlar batafsil bayon etilgan.

Dastur fanning mazmuni, talabalar bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talabalar, bo'lajak pedagoglaming kelgusidagi kasb faoliyati uchun mos keladigan nazariy tushunchalami o'z ichiga Olgan.

Dastur fanning mazmuni, talabalar bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talabalar, bo'lajak pedagoglaming kelgusidagi kasb faoliyati uchun mos keladigan nazariy tushunchalarni o'z ichiga ołgan.yuqoridagilarni hisobga Olgan holda, ushbu o'quv dasturi mazmuni va tuzilishi jihatdan bunday o'quv dasturlariga qo'yiladigan talablarga mos.

Shundan kelib chiqib, "Ontologiya va bilish nazariyasi” fanidan tayyorlangan fan dasturi mazmunan va tuzilishi jihatidan OTM fan dasturlariga qo'yilgan talablarga javob beradi deb hisoblayman va uni barcha ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun ta'lim jarayonida foydalanishga tavsiya etaman.

Psixologiya va ijtimoiy siyosiy fanlar fakulteti,
“Falsafa va milliy g’oya” kafedrasi **prof. A.Samadov**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Psixologiya va ijtimoiy siyosiy fanlar fakulteti, “Falsafa va milliy g’oya” kafedrasida tuzilgan tuzilgan “Ontologiya va bilish nazariyasi” fanidan dasturga

TAQRIZ

Yaratilgan fan dasturi oliy ta'lim tizimida bakalavr bosqichi talabalari uchun o'tilagan "Ontologiya va bilish nazariyasi” fanining mazmuni va o'tilishi tartibini, talabalar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim hamda ko'nikmalar hajtnini bclgilab bcradigan rasmiy pedagogik huiiat hisoblanadi. Shu o'rinda tafakkur tarzi metodologiyasi fanini o'qitilishidan maqsad mustaqil fikrlashni, jamiyat, uning asosiy hayot sohalarida kechayotgan murak'kab ijtimoiy jarayonlar haqida bilimlar berish orqali falsafiy dunyo qarashni shakllantirish, jamiyatda qiladigan qonunlarning o'ziga xos jihatlarini jamiyatning real hayoti, unda kechayotgan voqea, jarayonlarni to'g'ri anglash qobiliyatlarini rivojlantirish, jamiyatni ilmiy bilim yo'llari, usullarini qo'llashdan iborat.

Fan dasturi oliy ta' lim tizimda bakalavir bosqichi talabalari uchun o'tiladigan "Ontologiya va bilish nazariyasi” fanining mazmuni va o'tilishi tartibini, talabalar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim hamda ko'nikmalar hajmini belgilab beradigan rasmiy pedagogik huijat hisoblanadi.

Dasturda "Ontologiya va bilish nazariyasi” fani yo'nalishi xususiyatlarini hisobga Olgan hołda ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlari uchun mavzular va ulami bayon etish uchun zarur ko'rsatma va tavsiyalar keltirilgan. Shuningdek mustaqil ta'lim shakllari va mavzulari, fanni o'qitish natijalari, ta'lim texnologiyalari va metodlari hamda asosiy qo'shimcha adabiyotlar batafsil bayon etilgan.

Dastur fanning mazmuni, talabalar bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talabalar, bo'lajak pedagoglaming kelgusidagi kasb faoliyati uchun mos keladigan nazariy tushunchalarni o'z ichiga Olgan.

Dastur fanning mazmuni, talabalar bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talabalar, bo'lajak pedagoglaming kelgusidagi kasb faoliyati uchun mos keladigan nazariy tushunchalarni o'z ichiga ołgan.yuqoridagilarni hisobga Olgan holda, ushbu o'quv dasturi mazmuni va tuzilishi jihatdan bunday o'quv dasturlariga qo'yiladigan barcha talablarga javob beradi deb hisoblayman va tavsiya etaman.

Samarqand davlat chet tillar instituti Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari kafesrasi professori v/b., falsafa fanlari doktori

R.R. Komilo

KOMILOVA IMZOSINI TASDIQLAYMAN